

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15559733>

Aliqulova Mohinur O'ktam qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Instituti o'qituvchisi
mohinuraliqulova96@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda ingliz tilini mukammal o'rgatish va o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy metodlar hamda ulardan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Ingliz tili, metod, texnologiya, innovatsiya, dars, ta'lim, jarayon, chet tili, ilm-fan.

Ma'lumki, biz hozir rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida turli xil o'zgarishlar yuz bermoqda va katta yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng ilm-fanga, ayniqsa chet tillariga yanada kuchli e'tibor berildi. Nafaqat chet tilini balki har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda o'rgatish hozirgi zamonning muhim talablaridan biridir.

Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida o'zgarishlar va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ilm-fanga ayniqsa, chet tillarga e'tibor yanada kuchaydi. Har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanib o'rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashlik etishga bo'lgan talab kundankunga o'sib boryapti. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha bo'lgan ana'naviy ta'limdan farqli ravishda zamonaviy metodlardan foydalanganda o'quvchi shaxsining rivojlanishichet, shakllanishi, yetarli bilim olishi va tarbiyalanishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilayapti. Zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chet tillarini xususan, ingliz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari mavjud.

Dunyoda ingliz tilining xalqaro aloqaning yetakchi vositasi sifatidagi mavqei tobora kuchayib borayotgani va bu jarayonni to'xtatish yoki sekinlashtirishning jiddiy tendensiyalari mavjud emasligini inobatga olib, bu borada samarali usullarni

qo'llash muammosi qo'yilmoqda. Zamonaviy ma'noda o'quv jarayoni o'quvchilarni ma'lum bilim, ko'nikma, qobiliyat va qadriyatlar bilan tanishtirish uchun o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni sifatida qaraladi. Demak, ta'lim jarayonida turli fanlar bo'yicha talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari va metodlardan foydalanish o'qituvchilarga, eng avvalo, bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, ta'lim tizimini texnik jihatdan ta'minlash, o'quv-uslubiy bilimlardan to'liq foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganitotgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'maklashadi.

Texnologiya asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda. Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi yangi dastur va ko'rsatuvlar muntazam ravishda uzatilib kelinmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatitlayotgan o'quvchida to'rt ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini zamonaviy metod va texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ta'lim jarayonini didaktik va axborot bilan ta'minlashning yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish bosqichida ta'lim mazmunini o'zlashtirish muammosini hal etishga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini yaratish muhimligi ta'kidlangan. Jumladan, o'quv jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv usullarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni individuallashtirish va mustaqil ta'lim, shuningdek, masofaviy o'qitish texnologiyasini, uning vositalarini rivojlantirish, o'zlashtirish, talabalarni yangi pedagogik metodlar va masofaviy o'qitish texnologiyalari asosida o'qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirishning yana bir muhim omili texnik vositalardan foydalanishdir. Bu, o'z navbatida, til o'rganishga bo'lgan qiziqishni va o'qitiladigan

darslarning sifatini oshiradi, o'quvchilarni o'quv jarayonida faolroq qiladi. Agar o'quv jarayonida usullar to'g'ri tanlangan bo'lsa, kerakli natijaga qisqa vaqt ichida erishish mumkin

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir.

Ingliz tili kabi tilni o'rganayotganda talabalar uchun til o'qitishning an'anaviy usullari va yondashuvlari qiziqarli emas va ko'p hollarda ular bunday yondashuvlarni qabul qilmaydi. Ammo ular ingliz tilini o'qitishning so'nggi uslublari va zamonaviy metodlariga juda qiziqishmoqda. Xuddi shu holatni ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilarga o'rgatishda ham kuzatilishi mumkin. Shu sababdan zamonaviy ingliz tili o'qituvchilari vaziyatni o'z vaqtida tushunishdi va ular o'qitishda yangi metodlarni o'zlashtirmoqdalar, shuningdek, eng yangi usul va yondashuvlarni amalga oshirmoqdalar.

Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan:

1. "B-B-B" (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o'quvchilarning matnni tushinishini, uni tahliq qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming) - g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o'quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini

topish o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o'quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4."Tezkor savol"(Quick answers) Bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5."Pantomima"(Pantomime)- turli xildagi so'zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib o'quvchilar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadqa muvofiq bo'ladi.

6."Hikoya zanjiri"(A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi.

7."Rasmlar so'zlaganda"(When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8."Kviz kartochkalar"(Quiz cards)- bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilarlar bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta'minlaydi, bu esa vaqtni ancha tejaydi.

9."Klaster" usuli. Klasterlarga ajratish o'quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo'shish uchun samarali usuldir.

10."Insert" metodi. Bunda o'quvchilarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va o'quvchilardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni kuzatuvchanlikni va tushunishni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi.

Demak, yuqorida ko'rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarni o'rgatishda samarali usullari bor ekan. O'qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

Bundan kelib chiqadiki, darslarimizni yanada boyitish, o'rganuvchilarni qiziqitira olish, ularning bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ularni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish esa yutuqlarimizning asosiy garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat, Toshkent 2012-yil.
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. “Ingliz tili darslarida qo’llaniladigan interfaol usullar”(uslubiy qo’llanma) , Navoiy. 2006,40 bet
3. O’.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
4. Отабоева, М. Р. Чет тилини о’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi /
5. М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.202
6. Yoqubov I. “Ingliz tili o’qitish metodikasi”, (o’quv qo’llanma). Toshkent,Sharq nashriyoti. 2003-yi